

23-dars. LMS ASOSIDA MASOFAVIY TA'LIM OLIH. MOODLE PLATFORMASI

So'nggi yillarda o'quvchilarda mustaqil bilim olishga, maktab dasturiga qo'shimcha sifatida turli dasturlarni o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda o'quvchilar tomonidan ularning qiziqishlari doirasida videodarslarning qo'yilishi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Hozirda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi yoshlarga internet orqali o'z qiziqishlari doirasida ta'lim olish imkonini bermoqda. Buning uchun ulardan rus va ingliz tillarini suhbatlashish darajasida bilish, shuningdek, zamonaviy internet texnologiyalaridan xabardorlik, xususan, SMM, LMS, CMS, MOOC kabi platformalarda ishlash bilim va ko'nikmalariga ega bo'lish talab etiladi.

TAYANCH TUSHUNCHALAR

- **DEMO versiya** — platformaning belgilangan vaqt davomida ishlashi mumkin bo'lgan nusxasi.
- **Ochiq kodli dasturiy ta'minot** — dasturning kodi ochiqligi sababli tegishli o'zgartirishlar kiritish imkoniyati mavjud bo'lgan dasturiy ta'minot.

BUNI BILASIZMI?



- **LMS platformalarida ro'yxatdan o'tish qanday bajariladi?**
- **LMS platformalarida nazorat topshiriqlarini bajarish mumkinmi?**
- **LMS platformalarida o'qituvchi yoki do'stlar bilan muloqot olib borish mumkinmi?**

DIQQAT

Moodle platformasi haqida tushuncha



Moodle — o'quv materiallarini turli usullarda uzatish (15 turdagi interfaol vosita), bilimlarni tekshirish va o'zlashtirish monitoringini yuritish uchun mo'ljallangan platforma. Moodle platformasida o'quvchilar mustaqil va erkin ravishda istagan bilimni olish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasi bevosita uning intellektual salohiyatiga bog'liq bo'lganligi bois, ular tomonidan ko'rgazmalilikning keng imkoniyatlaridan foydalanish egallanayotgan bilim mohiyatini teranroq anglashga yordam beradi. Shu bilan bir qatorda, bu tizim o'zining ochiq kodliligi bilan har qanday dasturchiga istalgan ta'lim loyihasini o'z ehtiyojlariga "moslash" hamda unga yangi xizmat turlarini qo'shish imkonini beradi. Bu bepul tarqatiladigan platforma o'zining funksional imkoniyatlari, o'rganish uchun oddiyligi va foydalanishda qulayligi bilan foydalanuvchilarning har qanday talabini qanoatlantira oladi. Quyida Moodle platformasining DEMO versiyasi bilan ishlashini ko'rib chiqamiz.

ESLAB QOLING



- **Open Source** (Ochiq kodli dasturiy ta'minot) atamasi 1998-yilda Erik Reymond hamda Bryus Perens tomonidan kiritilgan. Ochiq kodli dasturiy ta'minot — dasturning kodi ochiq va undan erkin foydalanish mumkin bo'lgan, zaruriy holatlarda unga tegishli o'zgartirishlar kiritish imkoniyati mavjud dasturiy ta'minot.

Moodle platformasida ta'lim olish

1. **Moodlening** rasmiy manzili (moodle.org) brauzerning manzil qatoriga kiritiladi. Asosiy menyu qatoridan **DEMO**, ochilgan sahifadan esa **Mount Orange School**, so'ng **Go to courses** tugmachasi tanlanadi.
2. Kurslar ro'yxatidan **Art and Media**, bo'limlar ro'yxatidan esa **Digital Literacy** o'quv kursi tanlanadi.
3. **Kirish** orqali tizimda ro'yxatdan o'tish, agar ro'yxatdan o'tilgan bo'lsa, login va parol yordamida tizimga kirish mumkin (1).
4. **Til** bo'limi orqali platformaning tilini o'zgartirish mumkin (2). Mazkur platforma bir necha tilga tarjima qilingan.
5. O'quv kursi va uning modullari yordamida kerakli modulga o'tish mumkin (3).
6. **Kalendar** bo'limi orqali topshiriq, tadbir va xabarlar haqida ma'lumot olish mumkin (4).
7. Kursning birinchi modulida, asosan, e'lonlarni o'qish va so'rovnomalarga javob berish mumkin (5).
8. Kursning keyingi modullarida matnli, audio, video, taqdimot, glossariy va boshqa turdagi o'quv materiallarini sahifaning o'zi orqali yoki yuklab olish yordamida o'zlashtirish mumkin (6).
9. Topshiriqlar modulida esa amaliy topshiriq, savol, krossvord, viki topshiriq va testlar beriladi (7).

The screenshot shows the Moodle interface for 'Mount Orange School'. The top navigation bar includes a search bar and a login prompt. The left sidebar contains a course menu with items like 'About this course', 'Background reading', 'Group work and assessment', 'Extra resources', 'Self-reflection', 'Uyga', and 'Kalendar'. The main content area displays the 'Digital Literacy' course page, which includes sections for 'About this course', 'Group work and assessment', and 'Background reading'. Numbered callouts highlight specific features: 1 points to the login prompt; 2 points to the language selector; 3 points to the course menu; 4 points to the 'Kalendar' link; 5 points to the 'About this course' section; 6 points to the 'Background reading' section; and 7 points to the 'Group work and assessment' section.